



O'QUVCHILAR BILAN SODIR BO'LAYOTGAN OILAVIY HAMDA BULLING ZO'RAVONLIKLARINING SABABLARI, OQIBATLARI VA ULARNING OLDINI OLISH

Zarifaxon Nishonova Xusanovna

Farg'ona viloyati Quva tumani 17-maktab psixologi

Annotatsiya: Qadim zamonlarda zo'ravonlik eng ta'sirli ta'sir uslubi sanalib, insonni bir kishining boshqasidan ustun bo'lishiga majbur qildi. Kontseptsyaning o'zi nafaqat jismoniy, balki salbiy tabiatning ruhiy va ma'naviy ta'sirini ham o'z ichiga oladi.

Kalit soʻzlar: oila, jamoa, manfaatlar, himoya qilish, qurbonlar, ayollar va bolalar

Oiladagi zo'ravonlik bu erxotin yoki boshqa yaqin munosabatdagi kishilardan birining ikkinchisiga nisbatan jismoniy, ruhiy, jinsiy yoki moliyaviy zo'ravonlik ko'rsatishidir. Odatda, bu turdagi zo'ravonlik ostida bir tomonning oiladagi boshqa a'zolar hayoti ustidan nazoratni ushlab turishga bo'lgan intilishi yotadi. Uydagi zo'ravonlikning asosiy xususiyatlaridan biri shundaki, u o'zini qayta-qayta takrorlaydi. Oddiy bir martalik mojaroni jismoniy, jinsiy, ruhiy takrorlanadigan zo'ravonlikdan ajratib turadigan takrorlashdir. Har bir oilaviy zo'ravonlikning o'ziga yarasha sabablari bor. Ammo ularga olib keluvchi omillar qator umumiylikka ega. Uydagi zo'ravonlikning rivojlanishiga sabab bo'lgan omillar quyidagilardir:

- Bolalik davridagi sheriklarining ota-onasining tajovuzkor xatti-harakatlari. Bunday holatda, u o'zini tutish modelini ko'chirib, uni oilasida ko'paytiradi.
- Spirtli ichimliklarni yoki giyohvand moddalarni ichish. Spirtli ichimliklar va preparatlar odamning ruhiy holatini kuchaytiradi.
- Madaniyatning past darajasi, axloqiy tushunchalar yo'qligi. □ Hamkorlardan birining kam haq-hurmati



Oilada zo‘ravonlik va kamsitishlarga uchrayotgan ayollarning asosiy qismi hayotida moddiy va maishiy qiyinchiliklar mavjudligi, turmush o‘rtog‘ining ichkilikka ruju qo‘yganligi va ro‘zg‘orga mas’uliyatsiz ekanligini bildirishgan. Ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, qiyin iqtisodiy va maishiy sharoitda oiladagi ichki muhit ham zo‘ravonlikka olib kelishi, bu esa, o‘z navbatida, o‘z joniga qasd qilishga moyil xulq-atvorni yuzaga keltirishi mumkin. Oilaviy mojarolarni hal qilishga mahalla vakillarining jalb qilinishi yaxshi amaliyot, chunki oiladagi ichki muammolar, dastlab, mahalla vakillari orasida muhokama qilinsa va tomonlarga to‘g‘ri va yetarli nasihat qilinsa, muammo kuchayishining oldi olinishi va natijada zo‘ravonlikka chek qo‘yilishi mumkin. Ammo amaliyotda bu tizim kutilganidek samarali ishlayapti, deb bo‘lmaydi. Ko‘p holatlarda mahalla oqsoqollari masalaga yuzaki yondashib, muammoni hal qilish yoki jabrlanuvchini himoya qilish o‘rniga, barcha aybni jabrlanuvchiga yuklaydi. Hisobotda keltirilishicha, ayrim mahalla vakillari orasida “Axir u ayolning eri-ku, qanaqasiga bu qilmish jinoyat bo‘ladi?” qabilida nosog‘lom fikrlash mavjudligi aniqlangan. Aksar hollarda, mahalla vakillari jabrlanuvchiga tegishli huquqiy yordam olish bo‘yicha yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish o‘rniga, erini kechirishga, sabrli bo‘lishga va o‘z ayblarini tuzatib yashashga undaydi. Sabablarni mushohada qilganda, mentalitetga xos xususiyatlarni e’tibordan qochirmaslik lozim. O‘zbek oilalarida shaxsiy hayot, oilaviy sir – muqaddas va xalqimiz bu ma’noda ancha konsertiv hisoblanadi. Bir so‘z bilan aytganda ko‘pchilik holatlarda oiladagi zo‘ravonlik oiladan tashqariga chiqmaydi. O‘zbek oilalari odatda ko‘p a’zolik, ya’ni nafaqat er va xotin, balki ularning qarindoshlari ham munosabatlar zanjirida muhim rol o‘ynaydi. Qaynona, qaynota va boshqa qarindoshlarning oiladagi kelinga zulm qilishi, uning so‘zsiz bo‘ysunishini, hech qanday imtiyozlar talab qilmasligini istashi yoki ota-onaning farzandga, kelinlarning betob qaynona yoki qaynotaga bosim o‘tkazishi kabi holatlar kuzatiladi. Afsuski, ana shu vaziyatlar aksar hollarda javbrlanuvchining o‘z joniga qasd qilishiga yoki oxirgi, kritik nuqtaga yetib borguncha zulmga bardosh berib, jiddiy tan jarohatlari, ruhiy zarbalar olishiga, sog‘lig‘ini tiklanmas darajada yo‘qotishiga sabab bo‘ladi. Qolaversa, jamiyatda birovning ichki ishiga aralashmaslik, o‘z tinchini o‘ylash, muammoga beparvolik va toqatlilik holatlar mavjud. Oilaviy zo‘ravonlik



nazoratdan chiqib, muammo kattalashgach, qilingan murojaatlar ko'pincha uchastka noziri yoki mahalla fuqarolar yig'inida tezda yopiladi, sabablar o'rganilmaydi, faqat o'sha vaziyatning o'zigagina taalluqli, vaqtinchalik choralar bilan cheklanib qolinadi. Natijada muammo chuqurroq ildiz otib boraveradi. Achinarlisi ko'pincha jabrlanuvchining o'zi murojaat qilmaydi yoki ishni javobgarni jazolashgacha olib bormay, da'vosini qaytarib oladi. Jazolanmagan jinoyatlar esa takrorlanishi sir emas. Boshqarib bo'lmaydigan, kishi hayotiga xavf tug'diradigan, uni o'z joniga qasd qilish darajasiga yetkazadigan oilaviy zo'ravonlik katta ijtimoiy muammoga aylanib bormoqda.

Oilada zo'ravonlikka uchragan jabrlanuvchiga nisbatan qanday yordamlarni amalga oshirish yuzasidan quidagilarni ko'rib chiqamiz:

- 1- oila zo'ravonligi qurbonlari murojaat qilishi mumkin bo'lgan maxsus ishonch telefonlari yoki bo'limlariga murojaat etish.
- 2- reabilitatsiya markazlari oilada zo'ravonlik qurboni bo'lgan odamlar uchun jabrdiydalarga tibbiy, psixologik, ijtimoiy va yuridik yordam ko'rsatish.
- 3- oilada zo'ravonlik haqidagi shikoyatni ko'rib chiqayotgan davlat organiga sud qarori chiqquniga qadar jabr yetkazganlikda gumon qilinuvchi kishini jabrlanuvchi bilan uchrashishini taqiqlash.
- 4- jamoatchilik orasida keng tushuntirish ishlarini olib borib, oiladagi zo'ravonlik bo'yicha mavjud noto'g'ri tushunchalarni o'zgratirish kerak. Bu ishga matbuot va nodavlat tashkilotlarini jalb qilish maqsadga muvofiq.

Oiladagi zo'ravonliklarda, asosan, ayollar jabr ko'rayotgani va muammoning yechimi, odatda, erkaklar qo'lida ekani uqtilirishi lozim. Bundan tashqari, zo'ravonlikka uchragan ayollarga qanday qilib o'zlarini himoya qilish yo'llari, bunday holatlarda kimga va qachon murojaat qilish, qayerdan yordam olishi mumkinligi to'g'risida kerakli ma'lumotlar berilishi kerak. Kuzatishlarim natijasida shuni ayta olamanki, zo'ravonlikka uchragan ayollarning juda ko'p qismi o'ziga bo'lgan bahosining pastligiga guvoh bo'laman. Bu o'z o'rnida men bundan ortiq hayotga noloyiqman, chidab yashashni



davom ettirmasam ko'chada qolaman, hamma ustimdan kuladi yoki hamma meni qoralaydi degan tushunchalar bilan yashaydi. Hayot shunday o'zgarmaydi tamoyili norasida bolalarning taqdiriga ham ta'sir etmay qolmaydi. Bolalar ham zo'ravonlik odatiy holdek qaraydi, kelajakda zo'ravon yoki jabrdiyda obrazida yashaydi. Shularni hisobga olib oiladagi zo'ravonlik oqibatlari haqida keng jamoatchilikni jalb qilish va zo'ravonlik sodir etilayotgan oilalar aniqlanib ularga tushuntirish ishlari olib borish maqsadga muvofiq xulosa chiqazadi degan umiddaman. Uydagi zo'ravonlikning asosiy xususiyatlaridan biri shundaki, u o'zini qayta-qayta takrorlaydi. Oddiy bir martalik mojaroni jismoniy, jinsiy, ruhiy takrorlanadigan zo'ravonlikdan ajratib turadigan takrorlashdir. Ko'pincha ayollar, bolalar, keksa ota-onalar va nogiron qarindoshlar qurbon bo'lishadi. Afsuski, bu deyarli har to'rtinchi oilada uchraydigan buzg'unchi ijtimoiy jarayon. Uydagi zo'ravonlikning asosiy xususiyatlaridan biri shundaki, u o'zini qayta-qayta takrorlaydi. Oddiy bir martalik mojaroni jismoniy, jinsiy, ruhiy takrorlanadigan zo'ravonlikdan ajratib turadigan takrorlashdir. Ko'pincha ayollar, bolalar, keksa ota-onalar va nogiron qarindoshlar qurbon bo'lishadi. Afsuski, bu deyarli har to'rtinchi oilada uchraydigan buzg'unchi ijtimoiy jarayondir.

Maktabda uchraydigan zo'ravonlik sodir etuvchilar agressor darajasi yuqori bo'lgan o'quvchilar va o'qituvchilarda uchraydi. Maktabdagi zo'ravonlik turlari:

1. O'quvchilar va o'qituvchilar o'rtasida uchraydigan zo'ravonlik. Agressor va malaka yetishmagan o'qituvchilarning o'quvchilarga nisbatan jismoniy, ruhiy ta'ziyq qo'llashi. Yoki aksincha o'quvchilar o'qituvchilarga nisbatan haqoratli so'zlar ishlatishi, jismoniy tajovuzkor harakatlar qo'lash holatlari kabilar kiradi.
2. Bulling-bir o'quvchini guruh yig'ilgan holatda ajratib qo'yish. Haqoratlashi, masharalanishi, kuch ishlatib kaltaklashi, qo'rqitish holatlari kuzatiladi.
3. Maktab buyumlariga nisbatan tajovuzkor moddiy zarar yetkazish. (Yashirin yoki ochiqchasiga). Bulding bo'layotgan o'quvchilar har bir maktabda uchrab turadigan holat. Buldinga qanday bolalar uchraydi: Albatta qandaydir sifatlari bilan bolalardan



4. ajralib turuvchi o'quvchilar. Masalan jismoniy jihatdan kamchiligi bor. Hattoki qulog'ini kattaligi yoki ko'zining rangining boshqalardan ajralib turishi. Yoki o'ta a'lochi o'quvchi bo'lishi ham mumkin. Oldindan qaysi bola buldinga uchrashini bilib bo'lmaydi. Afsuski juda ko'pchilik holatlarda bulding vaziyatiga e'tiborsizlik bilan qaraladi. Natijada buldingga uchragan bolalarda psixologik travmalar hosil bo'ladi. Kelajakda o'ziga nisbatan ishonchsizlik, atrofdagilarga nisbatan havfsirash, jamiyatda ijtimoiy munosabatlarda qiyinchiliklar yuzaga keladi. Kelajakda bu holat bulding bo'lgan bolalarda yana takrorlanadi. Buldingga uchragan o'quvchilar ongida jabrdiyda obrazi va o'ziga nisbatan
5. ishonchsizlik kuchliligidan “men tahqirlanishga loyiqman” degan tushunchalar asosida yashaydi. Ongsiz ravishda tajovuzkor insonlarni atrofiga tortib olaveradi. Buldinga uchragan bolalarni maktabdan boshqa maktabga ko'chirib yuborishning o'zi yechim sifatida kamlik qiladi. Psixolog uzoq vaqt davomida korreksion ishlarni olib borishi zarur bo'ladi. Buldingni yengil turida ham sinf rahbar va otaonalar aralashuvi kerak. Chunki zo'ravonlik takrorlanuvchi va kuchayib boruvchi vaziyat. Psixolog tomonidan sinflar kesimida ahil muhitni yaratishga qaratilgan treninglar o'tkazilishi zarur. Buldinga uchragan va bulding sodir etgan bolalar kelajagida qiyin vaziyatlarga ko'p uchrashadi. Bunday vaziyatni oldini olish eng birinchi navbatda maktab psixologining zimmasida.

Zo'ravonlikka uchrashi mumkin yoki uchragan har qanday o'quvchilar uchun o'ziga past baho berilishni oldini olishga qaratilgan ertaklar qo'llaniladi. Ehtiyotsiz munosabat (beparqlik) – bolaning jismoniy, ruhiy, aqliy va ijtimoiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatilishga olib keluvchi hayotiy ehtiyojlarni qondirilmasligi:

- ✓ e'tiborsiz, qarovsiz qoldirish, xavf ostida qoldirish;
- ✓ bola ehtiyojlariga nisbatan beparqlik (ovqatlanishga, tibbiy ko'makka, ta'limga, muloqotga, rivojlanishga bo'lgan ehtiyojlarining qondirilmasligi);
- ✓ hissiy yaqinlikning yo'qligi (undan voz kechish)



- ✓ mavjud tahdiddan bolani himoya qila olmaslik (istamaslik)

Ekspluatatsiya – boladan o‘z manfaati yo‘lida foydalanish – og‘ir mehnat, seksual foydalanish, trafik (foydalanish maqsadida bolalarni olib chiqib ketish, sotish).

Bola bilan shafqatsiz munosabatning to‘rtta turini ajratadilar:

- ✓ Shafqatsiz jismoniy munosabat
- ✓ Jinsiy zo‘ravonlik
- ✓ Bola ehtiyojlariga e‘tiborsizlik
- ✓ Psixologik zo‘ravonlik

Psixologik zo‘ravonlik, o‘z navbatida, ikki turda bo‘lishi ham mumkin:

- ✓ psixologik beparvolik – bu ota-ona yoki parvarishni amalga oshiruvchi shaxslarning bolaga zaruriy ko‘mak, e‘tibor, psixologik himoyani ta‘minlashga qodir emasliklari, unga mehrning yo‘qligi.
- ✓ psixologik shafqatsiz muomala – kattalar tomonidan bolani tahqirlash, uni kamsitish, xaqoratlash, mazax qilish maqsadida sodir etiladigan surunkali harakat.

Dastlab bolaga zo‘ravonlik namoyon etishning sababi ota-onalarning psixologik og‘ishi deb hisoblandi, keyin diqqat ijtimoiy kontekstga ko‘chirildi, bundan xatar omili ota-onaning bolaga zo‘ravonlik munosabatini shartlovchi qadriyatlar tizimi hamda ijtimoiy yakkalanishda yashirin ekanligi haqidagi xulosa kelib chiqadi. So‘ng zo‘ravonlikni ota-ona va bola o‘rtasidagi munosabatlarning buzilgan interfaol ijtimoiy modeli orqali sharhlashdi.

XULOSA

Xulosa o‘rnida aytish zarurki, tadqiqotchilar xatar omillarini shaxs, oila va jamiyat darajasida aniqlaydilar va bir omil emas, balki ularning o‘zaro ta’siri bolalar ustidan zo‘ravonlik o‘tkazishga olib kelishini isbotlaydilar. Shuningdek, ular u yoki bu xatar omilining mavjudligi zo‘ravonlikni namoyon etish degani emas, balki uning paydo bo‘lish ehtimoli yoki imkoniyati borligini ta’kidlaydilar. Bunda bir necha ijobiy omillarning mavjudligi (ijtimoiy ko‘nikmalar, “Men” ning ijobiy identifikatsiyasi va h.k.) xatar omilining ta’sirini kamaytiradi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Ўзбекистонда болаларни ҳолойиқ муносабатдан муҳофаза қилиш тизими” тренинги материаллари асосида. Save the Children (UK), 2003. (Таржимон А.Юнусов).
2. Шафқатсиз муносабат ва эҳтиётсиз муносабатга дучор бўлган болалар учун руҳий-тиббий-ижтимоий марказ “ОЗОН” (Россия) маълумотлари ҳамда “Ўзбекистонда болаларни ҳолойиқ муносабатдан муҳофаза қилиш тизими” тренинги материаллари асосида. Save the Children (UK), 2003. (Таржимон А.Юнусов).
3. Абдурахмонова, М. М. (2020). Ижтимоий иш касбий фаолиятининг мактабга йўналтирилган соҳасини ривожланишида жаҳон амалиёти тажрибалари. *Журнал Социальных Исследований*, 3(6).
4. Абдурахмонова, М. М. (2021). Теории межсекторальных подходов к защите детей. *Человек. Наука. Социум*, (2), 62-74.
5. Абдурахмонова, М. М. (2021). Необходимость изучения общественного мнения для принятия эффективных решений в школе. *Человек. Наука. Социум*, (1), 33-46.
6. Абдурахмонова, М. М., & Маллабоев, Ш. А. (2016). Узбекская модель развития малого предпринимательства. *Ученый XXI века*, 62.
7. Абдурахмонова, М. М., & Содикова, Д. Ш. (2020). Efficiency of management of higher education institutions in the preparation of qualified personnel. *Человек. Наука. Социум*, (2), 8-27.
8. Абдурахмонова, М. М. (2021). Мактабларда самарали қарор қабул қилиш учун жамоатчилик фикрини ўрганиш зарурияти. *Журнал Социальных Исследований*, (SPECIAL ISSUE 1).